

**QORAQALPOG'ISTON
RESPUBLIKASI
VAZIRLAR KENGASHINING
QARORI**



**QARAQALPAQSTAN
RESPUBLIKASI
MINISTRLER KENESININ
QARARI**

2023 - yil 14 - noyabr

399-13-0-Q/23

Qoraqalpog'iston Respublikasi
Vazirlar Kengashi

**Qoraqalpog'iston Respublikasi Bo'zatov tumani "Bo'zatov" ShFY hududidan
doimiy foydalanish huquqi asosida yer maydoni ajratish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 3-moddasi, "Yer to'g'risida"gi Qoraqalpog'iston Respublikasi Qonunining 4-moddasi va "Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi to'g'risida"gi Qoraqalpog'iston Respublikasi Qonunining 35-moddasi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi "Yer uchastkalarini jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga ajratishning ma'muriy reglamentini tasdiqlash to'g'risida"gi 543-son qaroriga muvofiq, Qoraqalpog'iston Respublikasi Bo'zatov tumani hokimligining 2023-yil 27-oktabrdagi 01-350-sonli buyurtma xatini inobatga olib, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi qaror qiladi:

1. Qoraqalpog'iston Respublikasi Qurilish vazirligi va vakolatli tashkilotlarning ijobiy xulosalari hamda kelishuvlari ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Bo'zatov tumani "Bo'zatov" ShFY hududidagi tuman hokimligi zaxira yer fondida turgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan 0,15 gektar yer maydoni Ma'naviyat va ma'rifat markazi qurilishi uchun ilovaga muvofiq Bo'zatov tumani hokimligiga doimiy foydalanish huquqi asosida o'rnatilgan tartibda ajratib berilsin.

3. Bo'zatov tumani hokimligi (K.Allaniyazov) belgilangan tartibda:

ajratilgan yer maydoniga qurilish loyiha hujjatlarini rasmiylashtirish;

ajratilgan yer maydonida qurilish ishlarini tegishli vakolatli tashkilotlar tomonidan berilgan loyihalar va texnik shartlarga amal qilgan holda amalga oshirish;

ajratilgan yer uchastkasida qurilish ishlarini davlat va jamoat ehtiyoji uchun doimiy foydalanishga berilayotgan yer uchastkasiga bo'lgan huquq davlat ro'yxatidan o'tkazilgandan keyin boshlash choralarini ko'rsin.

4. Davlat kadastrlari palatasi Qoraqalpog‘iston Respublikasi boshqarmasi (S.Urunboyev) mazkur qarorga muvofiq yer fondiga o‘rnatilgan tartibda tegishli o‘zgartirishlar kiritsin.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o‘rinbosari Sh.Dauletiyarov zimmasiga yuklansin.

**Qoraqalpog‘iston
Respublikasi Vazirlar
Kengashi Raisi**



F.Ermanov

Qoraqalpog'iston Respublikasi
Vazirlar Kengashining
2023-yil 14-noyabrdagi
399-13-0-Q/23-son qaroriga
1-ilova

